
O'ZBEKISTONDAN TO'RT TURDAGI URUG'LAR EKSPORTIGA RUXSAT BERILADI



O'zbekistondan to'rtta mahsulot – qovun, kanakunjut, xantal va maxsar urug'larini eksport qilishga ruxsat berildi. Bu haqda O'zbekiston Prezidentining joriy yilning 30 sentyabr kuni qabul qilingan "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilandi.

Farmonga muvofiq, 2022 yil 1 noyabrdan:

- bir eksport shartnomasi doirasida kelib tushmagan valyuta summasi eksportga yuklangan jami mahsulot narxining 5 foizidan oshmagan taqdirda muddati o'tgan debitor qarzdorlik hisoblanmaydi va tadbirkorga nisbatan jarima qo'llanilmaydi;
- eksport tashkilotlariga foyda va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq bazasini kamaytirish shaklidagi imtiyozlar tovarlarni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'i nazar qo'llaniladi;
- qovun, kanakunjut, xantal va maxsar urug'lari eksportiga ruxsat beriladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-03 12:10:45